



NUTQ MADANIYATI – INSON KO'RKI

Usubjonova Sadoqatxon Valijon Qizi

e-mail: sadoqatxonsubjonova@gmail.com

Uzbekistan state world languages university

Foreign language and literature

Student of 3rd English faculty

Umarov Bobur Norboyevich

Scientific adviser: Senior teacher in the Department of Intergrated course 3

Uzbekistan state world languages university

e-mail: bobirumarov80@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda barcha uchun birdek muhim bo'lgan notiqlik san'ati, qanday qilib notiqlik san'atini rivojlantirish, notiqlikning xususiyatlari, va nutq madaniyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: nutq, notiqlik, nutq madaniyati, nutqning xususiyatlari, nutqning aniqligi.

Аннотация: В этой статье речь пойдет о ораторском искусстве, которое в настоящее время одинаково важно для всех, о том, как развивать ораторское искусство, об особенностях ораторского искусства, и о культуре речи.

Ключевые слова: речь, красноречие, культура речи, особенности речи, точность речи.

Abstract: In this article we will talk about oratory, which is currently equally important for everyone, about how to develop oratory, about the features of oratory, and about the culture of speech.

Keywords: speech, eloquence, culture of speech, features of speech, accuracy of speech.

So'zdurki, nishon berur o'lukka jondin,

So'zdurki, jonga xabar berur jonondin.

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

Bugungi kunda jamiyatda borayotgan o'zaro axborot almashinish, bilim va ko'nikma orttirish jarayonlari muloqot orqali amalga oshirilayotgani barchaga ma'lum. Zamonning chin ma'noda juda ham tez rivojlanayotganini zamon bilan hamnafas bo'lishni asosiy talabga aylantirib ulgurgan. Prezidentimiz tomonidan yosh avlodning qo'llab quvvatlanayotganligi, ularning bilim olishiga yetaricha shart-sharoitlar yaratilganligi esa alohida tahsinga sazovordir. Kelajak avlodning oldiga qo'yilgan asosiy va eng muhim vazifa o'qish va zamon bilan hamnafas bo'lib yangi bilimlarni egallab borishdir. Kitob o'qish, mutolaa qilish orqali ko'plab yutuqlarga erishish va





hayotda o'z o'rmini topishi mumkin. Ko'p kitob o'qigan odamning so'zlari esa katta auditoriyani o'ziga jalb qiladi va u go'zal nutq va ta'sirchan so'z boyligiga ega bo'ladi. Notiqlik shunday so'z san'atidirki, u insonni beixtiyor bo'ysunishga undaydi, qalbini junbushga keltiradi. U shunday san'atidirki, biror voqeа-hodisani tinglovchining ko'z oldida qayta jonlantirishi, uning ongiga xayolotiga ta'sir qilishi, kuldirishi va hatto yig'latishi mumkin. Notiqlik san'atining asosiy vazifalari ham ana shundan iborat ya'ni no'noq va tajribasiz notiqlarning xatolarini aniqlash, mohir va muvaffaqiyatli notiqlar muvaffaqiyatini sabablarini aniqlash, ularni kuzatish va yo'l-yo'riq ko'rsatishdan iborat. Ba'zilar notiqlikmi aravani quruq olib qochishga qiyoslaydilar. Ammo nutqning ham o'z talablari va xususiyatlari mavjud. Nutqning xususiyatlariga nutqning to'g'riliği, aniqligi, mantiqiyligi, sofligi va ta'sirchanligi kiradi. Nutq shu xususiyatlarni o'z ichiga olgandagina haqiqiy nutq bo'ladi va u orqali insonlarga biror bir mavzu yoki g'oyani yetkazish, ularni ma'lum maqsadga safarbar qilish imkonini beradi.

Bundan kelib chiqadiki, notiqlik san'atida tinglovchilarni muayyan maqsadga jalb qila olishga erishish assosiy o'rın tutadi. Har bir kishi o'z hayotida muvaffaqiyatga erishish uchun sabr va mehnat qilishi kerak. Bu jarayonda qat'iyat va tirishqoqlik juda muhimdir. Nutqning muvaffaqiyatli uchun astoydil harakat qilish va o'z fikrida qattiq turish lozim. Inson nimani o'rganar ekan yoki egallar ekan unga birdaniga erisha olmaydi Ayniqsa notiqlik mahorati yillar davomida uzluksiz mashq evaziga erishiladi. Bu jarayonda birdaniga muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Ba'zi bir narsalarni o'zlashtirish uchun ko'proq mehnat va vaqt talab etilsa, boshqalarda qisqa muddatda ko'proq va kattaroq yutuqlarga erishiladi. Nutq jarayonida tirishqoqlik va qat'iyat alohida ahamiyatga ega. Nutqning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun astoydil harakat qilish va o'z fikrida qattiq turish lozim. Har qanday inson ham nutqning boshlang'ich jarayonida hayajonlanishi mumkin, ammo dadil tursa biroz vaqt o'tgach bu hayajon bosiladi. Ma'lumki, har bir kishi o'z nutqning mazmunli, chiroyli va ta'sirchan bo'lishini orzu qiladi. Ammo bu orzuni amalga oshirish ancha mushkul va qiyin, chunki har bir inson o'ziga xos bilimlarga, xislatga va imkoniyatga ega. Qolaversa, nutq jarayonidagi holat ham notiqqa o'z ta'sirini ko'rsatadi: tinglovchilarning kam yoki ko'pligi, auditoryaning katta yok kichikligi, qatnashuvchilarning tarkibi va saviyasi, notiqlarning tajribasi va mahorati. Qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar har qanday kishi ham, notiqlik mahoratining egallashi mumkin. Buning uchun eng avvalo, notiqlik





mahoratini egallash uchun kuchli qiziqish va o'z ustida uzlusiz tinimsiz ishlash kerak. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, mashhur va taniqli notiqlar bu maqsad yo'lida tinimsiz mehnat va mashq qilganlar. Nutqni mustahkam qilish, xatti-harakatlarini tartibga solish va o'z fikrlarini to'g'ri bayon qilishning muhimligini, shuningdek, nutqni qayta-qayta mashq qilish va uning effektivligini oshirish uchun quyidagi usullarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

1-usul. Faktlarni bayon qilish: Nutqni kuchli qilish uchun, o'z fikrlarini, mulohazalarini, yoki maslahatlarini foydali faktlar bilan tasdiqlab ko'rsatish muhim. Masalaga oid statistika, tadqiqot natijalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2-usul. Mushkul holni to'g'rilash yo'lini ko'rsatish: Nutq davomida muammolarni va yechimlarni keltirib o'tilsa nutq samarali chiqadi.

3-usul. Hamkorlik qilish haqida so'rov: Nutqda nafaqat shaxsiy fikrlarni bayon qilish boshqa insonlarning mulohazalariga ham e'tibor berish nutqni sezilarliroq qiladi.

4-usul. Qiziqtirishga ega bo'lish va e'tiborni tortish: Ommani qiziqtirish va ularga qulay bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlash nutqni qiziqarli va tushunarli qiladi.

5-usul. Ishonchni qozonish: Tinglovchilar ishonchini qozonish, ularda o'z fikrlaringizga ishonchni shakllantirish nutqning ta'sirini kuchliroq qiladi.

Nutqni mavzuga mos ravishda tuzilishi, hamda uni o'rganish va so'zlash jarayonida amalga oshirilgan mashqlar nutq mahoratini kuchaytirishga yordam beradi. Agar yuqorida keltirilgan usullardan foydalanilsa nutq kuchliroq bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Notiqlik san'ati faol fikrlash, ijodiylik, va jamiyat bilan munosabatlarda shakllanish maqsadida katta ahamiyatga ega. Bunday muhitlarda, insonlar o'z nutqlarini o'rganib, rivojlantirib, va o'z fikrlarini aniqli vaziyatda ifodalay oladilar. Bu esa jamiyatning intellektual, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyyotlar:

1. N.Bekmirzayev. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati.-Toshkent:Fan,2007.
2. A.Hamidov. O'qituvchi nutqi madaniyati. Termiz,2013.

